INTERNATIONAL SCIENTIFIC
INNOVATION RESEARCH CONFERENCE
Volume 03, Issue 05, 2026

Oripova Zilola
Defektolog-magistrant

Alaliyali bolalar nutqini o`stirish bo`yicha korreksion ish mazmuni va bosqichlari

Alaliyali bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha korreksion ishlarning asosiy yo‘nalishlari nutqiy rivojlanishdagi uzilishlarni to‘ldirishga va maxsus dastur bo‘yicha maktab ta’limiga tayyorlashga yo‘naltiriladi yoki u maktab ta’limiga qo‘shimcha ravishda parallel olib boriladi. Nutqiy rivojlanmaganlikni bartaraf etishni shunday tashkil qilish kerakki, ish jarayonida maktab vazifalarini o‘zlashtirishga tayyorgarlik yuzaga kelsin.

Samarali logopedik ish, agar u psixonevrolog (nevrapatolog, psixiatr) tomonidan o‘tkaziladigan faol dori-darmon va fizioterapevtik muolajalar fonida har tomonlama o‘tkazilsagina amalga oshadi. Ish jarayonida turli metod, bolaning nutqiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishning vazifa va mazmuni aniqlanadi. Ishning boshlang‘ich bosqichlarida nutqning psixofiziologik asoslari shakllantiriladi, bolada muloqotga ehtiyoj hissi uyg‘otiladi.

Alaliyali bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha korreksion ishda nutqni to‘g‘rilash ishlari amaliy predmetli faoliyat bilan bog‘liq va unga tayanadi. Bola o‘z harakatlarini tushunish shakllantiriladi (men o‘tiryapman, chopayapman, sakrayapman. Alaliyali bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha korreksion ish qancha erta boshlansa, shuncha samarali yutuqlarga erishish mumkin. Mashg‘ulotlar frontal, guruhli va individual tarzda o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlarda olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarining maqsadi quyidagilardan iborat:

- Nutqdagi noto‘g‘ri talaffuzni to‘g‘irlash;
- To‘g‘ri talaffuz malakalarini shakllantirish;
- Bolalarni nutqini diqqat bilan eshitishga o‘rgatish;
- Fonematik idrokni rivojlantirish;
- Tovushlarni tahlil va tarkib qilish malakalarini shakllantirish.

Alaliyali bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha korreksion ishda nutqning fonetik tomondagi kamchiliklarini bartaraf etish tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Og‘zaki nutqni idrok etishni shakllantirish;
- Artikuyatsion apparat motorikasini rivojlantirish;
- Sirg‘aluvchi, shovqinli, sonor, til orqa va chuqur til orqa tovushlarni to‘g‘ri artikuyatsyasini tarbiyalash.

Nutqning fonetik idrok tomonidagi kamchiliklarni bartarf etish tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Tovush artikulyatsiyasini aniqlash, bo‘g‘in va so‘zlardan tovushlarni ajratish;

- Berilgan tovushning so‘zdagi o‘rnini topish (so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida);
- So‘zlardan tovushlar ketma-ketligi va sonini aniqlash.

Fonematik idrokni rivojlantirish korreksion-logopedik ishning asosiy yo‘nalishidir. Bu ishlar tovushlar tahlili ustidagi ish bilan o‘zaro bog‘liqlikda olib boriladi. Ushbu jarayonda quyidagi ishlarni olib borish ko‘zda tutiladi:

- Nutqdan tashqari, ya’ni nutqsiz tovushlarni bilish va ajratish;
- Ma’lum tovushni bo‘g‘inlar ichidan ajratish;
- Ma’lum berilagan tovushga so‘z o‘ylab topish;
- Bir tovush bilan farqlanadigan bo‘g‘inlar tizimini qaytarish (birbiridan uzoq va bir-biriga yaqin tovushlar asosida);
- Ma’lum tovushga rasm tanlash;
- Jarangli va jarangsiz tovushlari ajratish.

Alaliyali bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha korreksion ishda bosqichning maxsus vazifalari va o‘ziga xos ish mazmuni aniqlanadi:

Birinchi bosqichda olib borilayotgan ishlar quyidagilar sanaladi: nutqiy faollikni tarbiyalash, passiv va faol lug‘atni shakllantirish. Dialog, sodda, katta bo‘lmagan hikoya ustida ish olib boriladi. Nutqiy faoliyatning psixofiziologik asoslari va vaziyatli muloqotning birlamchi ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Ikkinchi bosqichda lug‘at va jumla tuzilishini murakkablashtirish asosida frazali nutqi shakllantiriladi.Gaplardan foydalanish ularni graamatik jihozlash, dialog va hikoya ustida ish olib boriladi.

Uchinchi bosqichda mustaqil nutqni shakllantirish ishlari olib boriladi. Barcha bosqichlarda nutqiy faoliyatning hamma tomonlari shakllantiriladi.

nutqida nuqsoni bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bilan olib boriladigan korreksion reabilitasion ishlarning samaradorligini oshirishda didaktik ta'minotga katta ahamiya berish zarur.

Xulosa qilib aytganda, alaliyali bola og‘zaki nutqining shakllanganlik darajasi uning atrofdagilar bilan hususan, sog‘lom kishilar bilan muloqot qilishi uchun asosiy zamin hisoblanadi. Bola o‘zi aytayotgan so‘zni eshitmasada, so‘zni tashkil qilgan tovushlarning artikulyatsion holatlarini to‘g‘ri keltirsa, uning nutqini tushunsa bo‘ladi. Alaliyali bolalarning lug‘at boyligini o‘rganishda tanlangan nutqiy materiallar amaldagi dasturlar va yakka tartibda olib boriladigan mashg‘ulot logopedlarining har bir bola uchun alohida tuzgan fonetik kundaligiga asosan tanlandi va oddiydan murakkabga munosabatda tuzildi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bilan olib boriladigan korreksion reabilitasion ishlarning samaradorligini oshirishda didaktik ta'minotga katta ahamiya berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ayupova M.Y. Korreksion ishlar metodikasi ma’ruza matni. T.: 2001.

2. Ayupova M.Y. LogopediY. - T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007.

3. Axunjanova S. A. O podgotovke detey k shkolnomu obucheniY. - T.: Ijodkor, 1995.

4. Axmedova Z., Ayupova M., Xamidova M. Logopedik o‘yin. T.: 2013.

5. Логопедия (под. ред. Проф. Л. С. Волковой) - М., 2003.

6. Соботович Е. Ф. Формирование правильной речи у детей с моторной алалией . - Киев, 1981

7. Лалаева Р. И. Логопедическая работа в коррекционных классах Изд - во Владос - М., 2001.